

## LABGULDOSHLAR OILASI VAKILLARINING UMUMIY TAVSIFI

Sayramov Fayzullo Baratjon o‘g‘li  
*Farg‘ona davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada labguldoshlar oila vakillarining umumiy tasnifi yoritib berilgan. Gulli o‘simliklar guruhiga 250000 dan ortiq tur, 533 oila, 13000 turkum o‘simliklar kiradi.*

**Kalit so‘zlar:** *labguldoshlar, oila, tur, ko‘kamaron, zufo, yalpiz, tog‘jambil, issop, limono‘t.*

Labguldoshlar (Lamiaceae) oilasi kattaligi va turlar xilma-xilligi jihatidan Sympetalae lar orasida qoqio‘tdoshlar (Asteraceae) va ro‘yandoshlar (Rubiaceae) oilasidan keyin uchinchi o‘rinda turadi. Bu oilaga Yer sharida 170 ga yaqin turkum va 3400 ga yaqin tur kiradi. Ular asosan o‘tlar, yarim butalar va butalar holida o‘sadi. Bir qancha belgilariga ko‘ra oson ajralib turadi: poyasi to‘rt qirrali bo‘ladi. Barglari oddiy, qarama-qarshi joylashgan, yonbargi yo‘q. Gullari zigomorf, ko‘pchiligida ikki lablilar. Otaligi ikki kuchli otaliklardan bo‘lib, soni to‘rtta, bulardan ko‘pincha tashqisi (oldingisi) qolgan ikkita ichkisidan (orqadagisidan) uzunroq. Onaligi bitta, uning yuqorida turadigan to‘rt bo‘lakli tugunchasi va tuguncha bo‘laklari o‘rtasi chiqib turadigan (ginobazik) bitta ustunchasi bor. Tumshuqchasi ikkiga ajralgan. Mevalari tuguncha bo‘laklarining soniga yarasha bir urug‘li, to‘rtta yong‘oqchaga bo‘linadi. Urug‘larida endosperm bo‘lmaydi yoki kichkina endosperm bo‘ladi.

Poyasining yuqori qismida, xar bir barg qo‘ltig‘idan odatda kichkina simoz to‘pgul, gulbandi juda kalta tortgan dixaziy yoki ko‘pincha qo‘sh gajak chiqadi; barglari qarama-qarshi joy olganligidan soxta mutovkalar hosil bo‘ladi, ular o‘z navbatida ko‘pchilik vakillarda shingilsimon, boshchasimon yoki supurgisimon to‘pgul hosil qiladi. Gul kosachabarglari qo‘shilib o‘sgan, naysimon yoki qo‘ng‘iroqsimon, besh tishli bo‘ladi yoki ba‘zilarida (xuddi gultoji singari) ikki labli bo‘ladi. Gultoji beshta gulbargdan yuzaga kelgan, ularning pastki qismi bir-biriga qo‘shilib o‘sib, naycha hosil qiladi, yuqori tomoni esa har xil shaklli ikkita labga – ikkita gulbargdan hosil bo‘lgan pastki labga ajralib turadi. Ba‘zilarida yuqori lab kuchsiz taraqqiy etadigan bo‘lganidan, masalan, semizak (Ajuga) da yoki yuqori lab pastki labga qo‘shilib o‘sadigan bo‘lganidan, masalan, Teucriumda gultoji bir lablidek bo‘lib ko‘rinadi. Teucrium da gultojining yuqori labi besh pallalidek bo‘lib turadigan pastki labga taqalgan ikki pallaga rosa ajralgan. Ba‘zilarida (masalan, yalpizda) yuqori labi kichkina bo‘lib, pastki labning pallalariga o‘xshab turadi, shunga ko‘ra gultoji xuddi aktinomorfdek, to‘rt pallalidek bo‘lib ko‘rinadi. Mavraklar, rozmarin va boshqa ba‘zi turkumlarda faqat ikkita otalik bor. Onaligi ikkita meva bargchadan hosil bo‘lgan; tugunchasi dastlab ikki uyali bo‘ladi, keyinroq ikkita soxta to‘siq bilan to‘rtta uyaga bo‘linadi; har bir uyasida bittadan anatrop urug‘kurtagi bor, uning mikropilesi pastga va tashqariga qarab turadi, uning to‘rtta uyasi tuguncha govzabondoshlar (Boraginaceae) oilasining vakillarida bo‘lganidek do‘ppayib turadi, shunga ko‘ra tuguncha to‘rt bo‘lakli (to‘rt pallali), ustuncha esa ginobazik bo‘lib qoladi. Ko‘pchilik vakillarining nektardoni tuguncha atrofidan joy oladi. Chetdan changlanish hasharotlar yordamida yuzaga chiqadi. Gullari proterandrik shaklda joylashgandir.

Labguldoshlar oilasining deyarli hamma vakillari efir moylariga boy, bu moylar bezsimon tuklar va kelib chiqishi jihatidan ularga yaqin turadigan kalta oyoqli epidermal bezsimon tangachalardan chiqadi. Yalpizdoshlarda sut yo‘llari, shuningdek, kuchli ta‘sir etuvchi zaharli moddalar yo‘q.

Labguldoshlar (Lamiaceae) oilasi yuksak gulli o‘simliklar yoki magnoliyatoifalar (Magnoliophyta) bo‘limi, ikki urug‘pallalilar yoki magnoliyasimonlar (Magnoliopsida) sinfiga mansub, O‘zbekiston florasida keng tarqalgan oila hisoblanadi.

Ko‘kamaron (*Scutellaria* L.) turkumi – gulkosa yetilgan mevada o‘rkachsimon, o‘simtasiz. Gulkosa yetilgan mevada qanotsimon yoki pufaksimon o‘simtali. Gullari och siyoh rang. O‘simlikning barglari nashtarsimon yoki cho‘ziq nashtarsimon asosi yuraksimon. Bu turkumga oid bir qancha turlari keng tarqalgan.

1. Qalpoqchali ko‘kamaron – (*S. galericulata* L.) – ko‘p yillik o‘t. poyasi to‘rt qirrali. Bo‘yi (20) 40-60 sm. Gullari bittadan barg qo‘ltig‘ida joylashgan. May-sentyabr oylarida gullab urug‘laydi. Ariq va daryo bo‘ylari, sholipoyalarda o‘sadi.

2. Dog‘siz ko‘kamaron (*S. immaculata* Nevski) – ko‘p yillik o‘t. Poyasi bir nechta, tukli, yostiqsimon. Bir yillik novdalari 5-10 sm. Iyun-sentyabr oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ yonbag‘irlarining toshli yerlarida o‘sadi.

3. Yonboshlagan ko‘kamaron (*S. adsurgens* M. Pop) – butacha. Bo‘yi 50 sm. To‘pguli shingilsimon, tig‘iz gulli. Gultojning pastki labi ich tomondan tukli. Gultoj nayi sariq, lablari to‘q. May-avgust oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ning o‘tli yonbag‘irlarida o‘sadi. Ko‘pincha Ugam vodiysida uchraydi. Barglari tuxumsimon, deyarli yumaloq yoki buyraksimon, asosi yuraksimon. Gultoji 25-30 mm.

4. Yuraksimon bargli ko‘kamaron (*S. cordifolius* Juz) – butacha. Bo‘yi 50 sm. To‘pguli shingilsimon. Guli sariq, lablari ba‘zan to‘q qizil rang. Iyul-avgust oylarida gullab urug‘laydi. Ugam, Chotqol, Chimyon tog‘ yonbag‘irlarida uchraydi.

5. O‘rtacha ko‘kamaron (*S. intermedia* M. Pop). yarim buta o‘simlik. Bo‘yi (10) 15-30 sm. Barglari bujmaygan, jingalak tukli, pastkilari cho‘ziq-tuxumsimon, cheti yirik kungirasimon arratishli. May-iyun oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ zonasining pastki qismidagi tosh-shag‘alli yerlarda o‘sadi. Gultoji qoramtir-qizil, nayi sarg‘ish.

6. Shoxdor ko‘kamaron (*S. ramosissima* M. Pop). yarim buta o‘simlik. Bo‘yi 25-50 sm. Poyasi bir nechta. Poyaning pastki qismidagi barglar nashtarsimon. Mart-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ zonasining toshli va chag‘ir toshli yerlarida o‘sadi.

Zufo (*Nepeta* L.) turkumi. Bo‘yi 20-50 sm. Poyasi bir nechta, yerdan ko‘tarlib o‘sadi. Barglari keng tuxumsimon yoki deyarli dumaloq. Guli pushti, sirti oq tukli.

1. Olga zufosi (*N. olgae* Rgl.). Ko‘p yillik o‘t, gullari kam, tig‘iz chalasoyabon, to‘pgulga yig‘ilgan. May-iyul oylarida gullab urug‘laydi. Chag‘ir toshli yon bag‘irlarida o‘sadi. Bo‘yi 60-80 sm. Poyasi baquvvat, tepa qismidan shohlangan. Barglari uchburchakli, tuxumsimon. Guli och sariq yoki deyarli oq.

2. Mushuk zufo (*N. cataria* L.). Ko‘p yillik o‘t. Gullari ko‘p, siyrak, chalasoyabon to‘pgulga yig‘ilgan. Iyun-avgust oylarida gullab urug‘laydi. Vohalarda begona o‘t sifatida o‘sadi. Tog‘ zonasida tarqalgan.

Bo‘zbosh (*Dracocephalum* L.) turkumi. Butunbargli bo‘zbosh (*D. integrifolia* Bge). Yarim buta. Bo‘yi 15-30 sm. Shoxchalari ko‘p. Barglari qalami-nashtarsimon, asosi ponasimon. Gullari kallaksimon to‘pgulga yig‘ilgan. Gultojbarglari siyoh rang. Iyun-avgust oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ yon bag‘irlarida o‘sadi.

Yalpiz (*Mentha L.*) turkumi. Ikkita changchisi yaxshi rivojlangan, 2 tasi staminodiy (rivojlanmay shakli o‘zgarib qolgan va changchisiz) holida yoki mutlaqo yo‘qolib ketgan. Gultojining yuqori labi shlemga o‘xshash ko‘rinishda. Gullari barg qo‘ltig‘ida 1 – 3 tadan qarama-qarshi yoki doira shaklida joylashib, piramidasimon to‘pgul hosil qiladi.

1. Dala yalpiz, suv yalpiz (*M. arvensis*). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 25-50 sm. Poyasi tik o‘sadi, shoxlangan. Barglari cho‘ziq rombsimon. Iyul-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Nam yerlar, ariq va daryo bo‘ylarida o‘sadi. Gullari xalqasimon joylashgan va boshhoqsimon to‘pgulda yig‘ilgan. Gultoji och siyoh rang.

2. Osiyo yalpizi (*M. asiatica* Boriss) – ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 60-100 sm. Poyasi tik o‘sadi, shoxlangan. Barglari nashtarsimon-cho‘ziq. Iyun-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Nam yerlar, ariq va daryo bo‘ylarida o‘sadi. Efir moyli o‘simlik.

Rayhon (*Ocimum L.*) turkumi. Oddiy rayhon (*O. basilicum L.*). Bir yillik. Bo‘yi 25-40 sm. Poyasi tik o‘sadi, shoxlangan. Barglari tuxumsimon. Gultoji 2 labli. Gullari xalqasimon joylashgan, boshhoqsimon to‘pgulga yig‘ilgan. May-oktyabr oylarida gullab urug‘laydi. Madaniy o‘simlik. Respublikamizda keng ekiladi. Rayhonning 300 ga yaqin navlari ma‘lum.

Likopus (*Lycopus L.*) turkumi. Yevropa likopusi (*L. europaeus L.*). Ko‘p yillik. Bo‘yi 30-80 sm. Poyasi tik o‘sadi, tepa qismidan shoxlangan. Barglari nashtarsimon, patsimon bo‘lakli, bo‘laklari uchburchakli-qalami. Gultojisi oq. Iyul-oktyabr oylarida gullab urug‘laydi. Nam yerlarda, ariq va daryo bo‘ylarida o‘sadi.

Tog‘jambil (*Thymus L.*) turkumi. Zarafshon tog‘jambili (*Th. zeravschanicus* Klok) – ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 5-10 (15) sm. O‘rmlab o‘sovchi yarim butacha. Barglari teskari-tuxumsimon yoki teskari-cho‘ziq nashtarsimon. Gultojisi pushti-qirmizi, kallaksimon to‘pgul hosil qiladi. Iyun-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi.

Tog‘rayhon (*Origanum L.*) turkumi. Maydagul tog‘rayhon (*O. tythanthum* Gontsch). Ko‘p yillik. Bo‘yi 30-60 sm. Poyasi bir nechta, tik o‘sadi. Tepa qismidan shoxlangan. Barglari cho‘ziq-tuxumsimon, asosi keng ponasimon. Gullari boshhoqsimon chalasoyabonlarga to‘plangan va ular kallakchali to‘pgul hosil qiladi. Gultojisi och siyoh rang. Iyun-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi.

Issop (*Hyssopus L.*) turkumi. Zarafshon issopi, dorivor issop (*H. zeravschanicus* Pazij). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 20-50 sm. Barglari nashtarsimon yoki cho‘ziq nashtarsimon. Gultojisi qoramtir-ko‘k siyoh rang. Iyun-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi.

Limo‘no‘t (*Melissa L.*) turkumi. Dorivor limo‘no‘t (*M. officinalis L.*). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 30-60 sm. Poyasi tik o‘sadi, shoxlangan, barglari tuxumsimon, asosi dumaloq. Gullari xalqasimon joylashgan. Gultojisi oq. Iyun-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Daraxtlar tagida, soya salqin joylarda o‘sadi. Dorivor va efir moyli o‘simlik.

Antonina (*Antonina Vved*) turkumi. Nozik antonina (*A. debilis* Vved). Bir yillik. Bo‘yi (3) 5-15 (20) sm. Poyasi nozik, oddiy, tik o‘sadi. Barglari tuxumsimon yoki cho‘ziq rombsimon. Gultojisi pushti. Iyul-avgust oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ zonasida daraxtlar tagida o‘sadi.

Kiyiko‘t (*Ziziphora L.*) turkumi. Nafis kiyiko‘t (*Z. tenuior L.*) Bir yillik o‘t. Bo‘yi 5-30 sm. Poyasi oddiy, asos qismidan shoxlangan. May-avgust oylarida gullab urug‘laydi. Cho‘l, adir va tog‘ zonalarida uchraydi. Efir moyli o‘simlik.

Gulbandli kiyiko‘t (*Z. pedicellata* Pazij). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 20-40 sm. Barglari nashtarsimon yoki ingichka nashtarsimon. Iyun-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi. Efir moyli o‘simlik.

Xapri ( *Perovskia Karel* ) turkumi. Muxallisbargli xapri, qisroq (*P. scrophulariifolia* Bunge). Yarim buta. Bo‘yi 60-120 sm. Gullari siyrak shingilsimon to‘pgulga yig‘ilgan, bargsiz shohchalarda ro‘vak hosil qiladi. Gultojisi siyoh rang. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgustda urug‘laydi. Tog‘ zonasida, shag‘al toshli yerlarda o‘sadi.

Ingichkabargli xapri, abrik ( *P. angustifolia* Kudr ). Yarim buta. Bo‘yi 50-100 sm. Gultojisi siyoh rang. Iyun-avgust oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ zonasining shag‘al toshli yerlarida o‘sadi.

Marmarak ( *Salvia. L.* ) turkumi. Yaltiroq marmarak ( *S. splendens* Ver-Gawl ). Bir yillik o‘t. Bo‘yi 50-80 sm. Poyasi tik o‘sadi. Barglari uchburchakli nashtarsimon. Gultoji 50-60 mm. Iyun-oktabr oylarida gullab urug‘laydi. Yovvoyi holda o‘svuchli ko‘p yillik o‘simlik. Gulzorlarda ekiladi.

Korolkov marmaragi ( *S. Korolkovii* Regel). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 24-50 sm. Ildiz bo‘g‘zidagi barglar nashtarsimon, uchi o‘tkir, asosi dumaloq ponasimon, usti yashil, siyrak tukli, orqa tomoni oq paxmoq tukli. Iyun-avgust oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ zonasida o‘sadi. Qizil kitobga kiritilgan.

Xushbo‘y marmarak ( *S. sclarea* L.). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 50-100 sm. Poyasi tik o‘sadi, tepa qismidan shohlangan. Iyun-avgust oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ zonasidagi bog‘larda, tog‘ daryolarida o‘sadi. Efir moyli o‘simlik.

Xivichnamo marmarak ( *S. virgata* Jacq.). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 60-100 sm. Poyasi tik o‘sadi, to‘pguli oldidan shohlangan. Iyun-avgust oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ zonasidagi bog‘larda, tog‘ daryolarida o‘sadi. Efir moyli o‘simlik.

Cho‘l marmaragi ( *S. deserta* Seang ). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 60-80 sm. Poyasi oddiy yoki shohlangan. May-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Bog‘lar, o‘tli tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi.

Quddus ( *Stachys* L. ) turkumi. Tog‘ quddusi ( *S. betoniciflora* Rupr ). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 40-100 sm. Poyasi baquvvat, tik o‘sadi, tukli. Barglari cho‘ziq nashtarsimon yoki nashtarsimon. Gullari boshqosimon to‘pgulga yig‘ilgan. Iyun-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ zonasida butalar orasida o‘sadi.

Hisor quddusi ( *S. hissarica* Rgl ). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 40-70 sm. Gultojining pastki labi qoramtir. Iyun-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi. Barglari nashtarsimon yoki bir oz cho‘ziq, asosi dumaloq yoki ponasimon. Gullari pushti sertuk o‘simlik.

Sertuk quddus ( *S. setifera* CAM. ). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 30-50 sm. Gullari yuqoridagi barglar qo‘ltig‘ida xalqasimon joylashgan. Iyun-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Adir va tog‘ zonasidagi daryo bo‘ylarida o‘sadi.

Bozulbang ( *Lagochilus* Bunge ) turkumi. Gangituvchi bozulbang ( *L. unebrians* Bunge). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 30-40-60 sm. Poya asosi yog‘ochlangan, shohlangan. Barglari rombsimon tuxum shaklida yoki yelpig‘ichsimon, uchi tikanli bo‘laklarga bo‘lingan. Gultoji oq yoki pushti qo‘ng‘ir tomirli 20-28 mm, naysimon gulkosadan uzun bo‘lib, chiqib turadi. Iyun-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Adirlarda uchraydi.

Arslonquloq ( *Leonurus* L.). Turkiston arslonqulog‘i ( *L. turkestanicus* V. Kreez ). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 40 – 150 sm. Poyasi bir nechta, tik o‘sadi, tepasidan shohlangan. Barglari panjasimon qirqilgan, rombsimon bo‘laklarga ajralgan. Gultoji siyoh pushti rang. Iyun-avgust oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ yonbag‘irlarida, tog‘li rayonlardagi ariqlar bo‘yi, jarliklar, bog‘larda o‘sadi.

Lamium ( Lamium L. ). turkumi. Oq lamium ( L. album L.). Bo‘yi 25 – 70 sm. Barglari tuxumsimon, o‘tkir uchli, asos qismi dumaloq.Iyulda gullab, avgustda urug‘laydi. Tog‘ zonasidagi nam yerlar, daralarda o‘sadi. Bir yillik o‘simlik.Gullari pushti.

Pushti lamium ( L. amplexicaule L.). Bo‘yi (5) 10 – 25 (40) sm. Poyasi shohlangan, yerdan ko‘tarilgan holda o‘sadi. Barglari dumaloq yoki dumaloq-buyraksimon.Guloldi barglari bandsiz, keng, poyani xalqasimon holda o‘rab olgan.Mart-may oylarida gullab, aprel-iyunda urug‘laydi.Vohalarda o‘sadi.

Qo‘ziquloq (Phlomis L.) turkumi. Severtsev qo‘ziqulog‘i( Ph. severtzovii Regel). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 30 – 50 sm. Poyasi bir nechta, asos qismidan shoxlangan. Barglari cho‘ziq tuxumsimon yoki keng tuxumsimon, uchi o‘tkir, yaproqlarini usti xira yashil, ostki tomoni oq yulduzsimon tukli.Iyul-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi.

Regel qo‘ziqulog‘i ( Ph. regelii M. Pop ). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 20 – 60 sm. Poyasi bir nechta, oddiy yoki shohlangan. Barglari cho‘ziq ko‘rinishdan cho‘ziq qalami- nashtarsimongacha. Yaproqlarining usti xira yashil, osti oq, tukli. May- avgust oylarida gullab urug‘laydi. Adir va tog‘ zonasida tarqalgan.

Ostrovskiy qo‘ziqulog‘i( Ph. ostrovskiana Regel) - ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 70 – 120 sm. Poyasi tik o‘sadi. Ildiz bo‘g‘zidagi barglari yirik dumaloq-tuxumsimon yoki uchburchak tuxumsimon, uchi o‘tmas, to‘mtoq tishli.Gullari bandsiz, xalqasimon joylashgan.Iyul-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ zonasining maysali yon bag‘irlarida o‘sadi.

Qisqa yonbargli qo‘ziquloq, katta barg qo‘ziquloq ( Ph. brachystegia Bunge) - ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 100 – 150 sm. Poyasi baquvvat, siyoh rang. Ildiz bo‘g‘zidagi barglar juda yirik, keng tuxumsimon yoki dumaloq-tuxumsimon.2 karra to‘mtoq tishli. Gullari bandsiz, ko‘p, poya va shohchalarda xalqasimon joylashgan. May-avgust oylarida gullab urug‘laydi.Chotqol, Ugam tog‘larining yon bag‘irlarida o‘sadi.

Eremostaxis (Eremostachys Bunge ) turkumi. Tenglabli eremostaxis( E. isochila Pazij et Vved.) - ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 20 – 40 sm. Poyasi baquvvat, ko‘pincha o‘rta qismidan shoxlangan. Gultojlari 30 – 32 mm. May-iyul oylarida gullab urug‘laydi. Adir va tog‘ zonasining toshli, mayin tuproqli yerlarda o‘sadi. Toshkent oblastida uchraydi.

Labdor eremostaxis (E. labiosa Bunge) - ko‘p yillik o‘t. Ildizining yon shohlari ba‘zan yo‘g‘onlashib, tugunak hosil qiladi. Bo‘yi 30 – 50 sm. Ildiz bo‘g‘zidagi barglari butun, cho‘ziq-tuxumsimon, uchi o‘tmas, asosi ponasimon yoki dumaloq, qo‘ng‘iroqsimon yoki lirasimon bo‘lakli. Aprel-iyun oylarida gullab urug‘ beradi.Soz tuproqli adirlarda o‘sadi.

Ajinli eremostaxis ( E. impressa Pazij et Vved ). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 20 – 50 sm. Poyasi bir nechta, o‘rta qismidan shoxlangan. Ildiz bo‘g‘zidagi barglari nashtarsimon, cho‘ziq. O‘simlik yulduzsimon tuklar bilan qoplangan. Aprel-iyun oylarida gullab urug‘ beradi. Toshkent viloyatidagi adirlarning mayin tuproqli va shag‘al toshli yerlarida o‘sadi [4,6].

Angren eremostaxisi ( E. angreni M. Pop ). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 20 – 50 sm. Poya va barglari tuksiz. Ildiz oldidagi barglar tuxumsimon, tubi yumaloq yoki yuraksimon. Guli siyoh rang, ostki labi oqish. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgustda urug‘laydi. Tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi.

Guloldi bargchasiz eremostaxis( E. ebracteolata M. Pop ). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 20 – 50 sm, tukli. Ildiz bo‘g‘zidagi barglar cho‘ziq yoki tuxumsimon, uchi o‘tmas asosi keng ponasimon.Gulga yaqin joylashgan barglar rombsimon, cho‘ziq, gulkosasi 9 – 11 mm, gultoji 15 – 20 mm. Iyun-iyul

o‘ylarida gullab, iyul-avgustda urug‘laydi. Toshkent viloyatining tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi. Ugam va Pskom vodiysida ko‘proq uchraydi.

Urchuqildiz eremostaxis( *E. integiov* Pazij et Vved ). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 40 – 60 sm. Ildizi baquvvat, urchuqsimon. Poyasi oddiy, tuksiz. Ildiz bo‘g‘zidagi barglar nashtarsimon, cho‘ziq nashtarsimon, patsimon qirqilgan yoki tishsimon bo‘lakli, tuksiz yoki siyrak tukli. Aprel-iyun oylarida gullab urug‘laydi. Toshkent viloyatining tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi.

Kelishgan eremostaxis( *E. speciosa* Rupr ). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 10 – 40 sm. Ildizining yon shohlari tugunaksimon. Poyasi oddiy paxmoq tuklar bilan qoplangan. Ildiz bo‘g‘zidagi barglari patsimon qirqilgan, ikki tomoni qalin tuklar bilan qoplangan. To‘pguli paxmoq tukli kallakchasimon. Aprel- avgust oylarida gullab urug‘laydi. Shag‘al toshli va toshli tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi.

Yaltiroq eremostaxis( *E. fulgens* Bge ). Ko‘p yillik o‘t. Ildizi urchuqsimon. Ildiz bo‘g‘zidagi barglar cho‘ziq, asosi ponasimon yoki dumaloq, chuqur patsimon bo‘lakli, 2 marta arrasimon tishli. Poyasi va bargi yulduzsimon tuklar bilan qoplangan. Aprel-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Toshkent viloyatining tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi [12,13].

Lofantus ( *Lophanthus* Adans ) turkumi. Shurovskiy lofantusi ( *L. schuravskianus* Rgl ). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 30 – 80 sm. Poyasi shohlangan va ko‘p sonli, jingalak tukli. Barglari tuxumsimon, asosi yuraksimon, cheti kungura tishli. Gullari yuqorigi barglar qo‘ltig‘ida joylashib chalasoyabonsimon to‘pgul hosil qiladi. Gultojlari siyoh rangda. May-avgust oylarida gullab, iyun-sentabr oylarida urug‘laydi. Tog‘ zonasida uchraydi.

Siderites ( *Siderites* L.) turkumi. Tog‘ sideritesi ( *S. montana* L.), bir yillik o‘t. Bo‘yi (5) 10 – 25 (40) sm. Poyasi oddiy yoki shohlangan. Barglari nashtarsimon. Gullari poyada xalqasimon joylashgan. Gultojisi sariq, keyinchalik qo‘ng‘ir tusga kiradi. Iyun -iyul oylarida gullab urug‘laydi. Adir va tog‘ zonasida tarqalgan.

Devoltegio‘t ( *Marrubium* L.) turkumi. Qatortishli devoltegio‘t ( *M. alternidens* Rech ). Ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 30 – 80 sm. Poyasi bir nechta, oddiy yoki shohlangan. Barglari dumaloq, qalin tukli.

Gullari doirasimon to‘pgul hosil qiladi. Gultoji oq. May -sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Bo‘sh yotgan yerlar, devorlar tagida, yo‘l yoqalarida o‘sadi.

Drepanokarium( *Drepanacaryum* Pojark) turkumi. Severtsev drepanokariumi ( *D. severtzovii* Pojark ). Bir yillik o‘t. Bo‘yi (5) 10-25 (40 ) sm. Barglari tuxumsimon, asosi yuraksimon. Gullari 2-5 (20) ta chalasoyabon to‘pgulga yig‘ilgan. Gultojisi pushti. Aprel-iyul oylarida gullab urug‘laydi. Daraxtlar tagida, qoyalarning soya-salqin joylarida o‘sadi.

Mallachoy ( *Lallemantia* F. et M.) turkumi. Royl mallachoyi ( *L. royleana* Benth). Bir yillik o‘t. Bo‘yi (5) 10-25 (60) sm. Poyasi oddiy yoki asos qismidan shoxlangan. Barglari ellipssimon yoki cho‘ziq, uchi to‘mtoq. Gullari boshoqsimon to‘pgulga yig‘ilgan. Gultojisi siyoh rang, mevasi uch qirrali, cho‘ziq qalami. Aprel-iyul oylarida gullab urug‘laydi. Cho‘l, adir va tog‘ zo‘nasida uchraydi.

Xipogamfiya ( *Hypogomphia* Bunge) turkumi. Turkiston xipogomfiyasi ( *H. turkestanica* Bge ). Bir yillik o‘t. Bo‘yi (5) 10-20 (30) sm. Poyasi oddiy, pastki qismidan shoxlangan, tik o‘sadi. Barglari cho‘ziq, uchi o‘tmas, asosi ponasimon. Gullari deyarli bandsiz, 1-2 tadan barg qo‘ltig‘ida joylashgan. Gultoji oq. Aprel –may oylarida gullab, iyun-iyulda urug‘laydi. Adir va tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi.

Qoraqosh ( *Prunella* L.) turkumi. Oddiy qoraqosh ( *P. vulgaris* L.). Bir yillik o‘t. Bo‘yi 10-40 sm. Poyasi oddiy yoki pastki qismidan shoxlangan. Barglari cho‘ziq tuxumsimon yoki tuxumsimon. Gullari

qisqa bandli, poya va shoxlari uchidagi tig‘iz boshhoqsimon to‘pgulga yig‘ilgan. Gultojisi oqish, qaytaqisi siyoh rang, yong‘oqchalari ellipssimon, uch qirali. Iyul-avgust oylarida gullab, Avgust-sentyabrda urug‘laydi. Adir va tog‘ zonasida, ariq bo‘ylari va nam yerlarda o‘sadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Karimov V., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo‘llaniladigan shifobaxsh o‘simliklar. —Toshkent, 1993.
2. Kursanov A. I. vaboshqalar. Botanika 2-tom –Toshkent, 1963.
3. Mustafoyev.S.M. Botanika –Toshkent, 2002.
4. Nabiyev M. Botanika atlas-lug‘ati. —Toshkent, 1969.